

SMTIda “Search for Common Ground” xalqaro notijorat tashkiloti vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.



Joriy yilning 12 fevralida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutida (SMTI) “Search for Common Ground” xalqaro notijorat tashkiloti (SFCG) vakillari – Osiyo bo‘yicha mintaqaviy maslahatchi, O‘zbekiston bo‘yicha direktori Keneshbek Saynazarov va dastur menejeri A. Haydarov bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Suhbat chog‘ida keng ko‘lamli masalalar yuzasidan ochiq muloqot bo‘lib o‘tdi, jumladan, mintaqaviy hamkorlik, repatriantlarni rehabilitatsiya va reintegratsiya qilish, yoshlar o‘rtasida diniy ekstremizmga qarshi kurashish, konfessiyalararo bag‘rikenglikni ta‘minlash borasidagi O‘zbekiston tajribasi ko‘rib chiqildi. SMTI va SFCG o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish istiqbollari ham muhokama qilindi.



Keneshbek Saynazarov SFCG ofisi O'zbekistonda 2022 yildan buyon faoliyat yuritib kelatganini ta'kidladi. Tashkilot Respublikaning tegishli vazirlik va idoralari bilan yaqin hamkorlikda BMTning "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik" global kun tartibini ilgari surish, yoshlarning jamiyatda va korrupsiyaga qarshi kurashda ishtiroki, axborot-kommunikatsiya segmentlarida ayollar zo'ravonligiga qarshi kurashish, diniy totuvlikni ta'minlash masalalariga qaratilgan loyihalarni amalga oshiradi.

O'z navbatida mehmonlarga O'zbekistonda yoshlar va gender siyosati, korrupsiya, shuningdek terrorizmga qarshi kurash bo'yicha, global va mintaqaviy darajada amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi. Xususan, bugungi kunda SMTI Birlashgan Millatlar Tashkilotining Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan birgalikda BMTning terrorizmga qarshi kurash kun tartibini mintaqada birgalikda amalga oshirish bo'yicha mustahkam tajriba to'plagani ta'kidlandi.



2022 yil mart oyida Toshkentda BMTning Global aksilterror strategiyasini Markaziy Osiyoda amalga oshirishga bag'ishlangan yuqori darajadagi xalqaro konferensiya muvaffaqiyatli o'tkazildi. Tadbirda bir qator muhim hujjatlar - Yangi tahrirdagi Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasi, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining yangi harakatlar rejasi doirasidagi hamkorlikka tayyorligini tasdiqlovchi "Toshkent deklaratsiyasi" qabul qilindi. 2023 yilda Toshkentda kiberxavfsizlik va yangi texnologiyalar, shuningdek, kriptovalyutalar yordamida terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ikkita mintaqaviy tadbir tashkil etildi. 2023 yil dekabr oyida BMTning Nyu-York shahridagi shtab-kvartirasida SMTI va BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolandi.

Ayni paytda tomonlar BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi shafeligida vatanga qaytganlarni rehabilitatsiya qilish va reintegratsiya qilish masalalari bo'yicha yetakchi ekspertlar orasidan Markaziy Osiyoda Mintaqaviy ekspertlar kengashini yaratish ustida birgalikda ishlamoqda. Bu tashabbusni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkentda bo'lib o'tgan anjumanda ma'lum qilgan edi. Kengashning birinchi yig'ilishi joriy yilda Toshkent shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan.



Uchrashuv yakunida tomonlar mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, jamiyatda xotin-qizlar va yoshlarning rolini oshirish, iqlim o'zgarishi ta'siriga moslashish masalalari bo'yicha qo'shma tadbirlarni tashkil etishga o'zaro qiziqish bildirdilar.

SFCG 1982 yilda tashkil etilgan dunyodagi eng yirik ixtisoslashtirilgan tinchlikparvar tashkilotdir. Marjori Nyuman-Uilyams uning prezidenti hisoblanadi. SFCGning vazifasi nizolarni hal qilishdagi yondashuvlarini o'zgartirishdir. Vashington va Belgiyada o'z ofislariga ega. Butun dunyo bo'ylab 700 dan ortiq xodimlari bilan Afrika, Osiyo, Yevropa, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Shimoliy Amerikadagi 30 dan ortiq mamlakatlarda loyihalarni amalga oshirmoqda.

